

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



**MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILI
ISHCHI O'QUV DASTURI
(SILLABUS)
(sirtqi)**

Bilim sohasi:	400 000	–	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohalari:	410 000	–	Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410100	–	Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Namangan-2024

2005.-374 b.	4. Ibragimov A.T., Rahimov M.Yu. Boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma. –T.: Moliya, 2004. -140 b.
	5. Ionova A.F., Selezneva N.N. Finansoviy analiz. Uchebnik. - M.: Prospekt, 2009. -624 s.
	6. Pardaev M.Q., Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. –T.: Mehnat, 2004. -488 b.
	Internet saytlari
	1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali
	2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
	3. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
	4. www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi rasmiy sayti
	5. www.ziyonet.uz – Axborot-ta'lim portali
	6. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining rasmiy sayti
7.	Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Fan/modul' uchun ma'sullar: U.Holmirzayev– NamMQI “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. PhD. A.Isomuxamedov – NamMQI “Iqtisodiyot” kafedrasida stajyor o'qituvchisi
8.	Taqrizchilar: U.Tursunov – NamMTI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida mudiri dotsenti, i.f.n. O.Sobirov – NamMTI “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. PhD.
9.	

Fan kodi MXT1706	O'quv yili 2023-2024-2025	Semestr 6,7	Kredit 3,3
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari 4,3	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1. Moliyaviy va boshqaruv tahlili	28 6-semestr(8 m/8a) 7-semestr(4m/8a)	152 6-semestr(74) 7-semestr(78)	180 6-semestr(90) 7-semestr(90)

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy holatini ifodalovchi turli axborot manbalaridan foydalangan holda ularning faoliyatidagi moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanilayotganligi haqida bo'layotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan iboratdir.

Fanning vazifasi – iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy holatiga xolisona baho berishni o'rganish, yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ichki imkoniyatlarni aniqlash, ilg'or tajribalarni amaliyotga tadbiiq etish bo'yicha malaka va ko'nikmalarini talabalarida shakllantirishdan iboratdir.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-modul(6-semestr)

1-Mavzu: Moliyaviy va boshqaruv tahlilining predmeti, asosiy vazifalari va tamoyillari

Tahlil (analiz) va sintez hodisa va jarayonlarni batafsil o'rganishning asosiy yo'li ekanligi. Turli mulkchilik shaklida iqtisodiyot sub'ektlarini to'g'ri boshqarishda tahlilning roli.

Iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatini atroficha, mukammal va keng o'rganish moliyaviy va boshqaruv tahlilining asosiy maqsadi ekanligi. Moliyaviy va boshqaruv tahlili fanning predmeti. Iqtisodiy tahlil fanning vazifalari. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining asosiy tamoyillari (printsipalari). Fanlar tarkibida iqtisodiy tahlilning o'rni. Iqtisodiyot sub'ektlarida moliyaviy va boshqaruv tahlilining o'rni va ahamiyati.

2-Mavzu: Moliyaviy va boshqaruv tahlilining metodi va usullari

Moliyaviy va boshqaruv tahlili fanning metodining o'ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining oddiy-an'anaviy usullari. Taqqoslash, o'rtaacha va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash, guruhlashtirish, balansli bog'lanish usullarining tahlilda qo'llanilishi. Moliyaviy va boshqaruv tahlilida iqtisodiy matematik usullarni qo'llashning zaruriyati. Integral usuli, korrelyatsion va regratsion usullar. nazariy

o'yin va nazariy xizmat ko'rsatish usullarining qo'llanilishi. Evrestik tahlil. Tahlil usullarini takomillashtirish masalalari.

*3-Mavzu: Iqtisodiyot sub'ektlarida tahlil ishlarini tashkil qilish va manbalar bilan ta'minlash

Iqtisodiyot sub'ektlarida tahlil ishlarini tashkil qilish bosqichlari. Tashqi va ichki tahlil. Tahlil uchun kerakli manbalar sistemasi va uning turlari. Iqtisodiy-texnologik, tabiiy-ekologik, huquqiy va boshqa manbalar to'g'risida tushunchalar. Iqtisodiy manbalarning turlari va ularni tashkil qilishning asosiy tamoyillari (printsipalari); haqoniylik, umumiy bog'liqlik, tezkorlik, tejankorlik va keraklilik tamoyillariga amal qilishlik. Iqtisodiy tahlil uchun kerakli manbalarga qo'yiladigan talablar va ularning to'g'riligini tekshirish.

*4-Mavzu: Iqtisodiyot sub'ektlarining marketing faoliyatini tahlili

Iqtisodiyot sub'ektlari mahsuloti hamda xizmatiga bo'lgan talab va taklifni o'rganishning ahamiyati va tahlilining vazifalari. Talab va taklifni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Iqtisodiyot sub'ektlari mahsuloti va xizmatiga bo'lgan talab darajasini aniqlovchi omillarining tahlili. Bozordagi talab va taklifni o'zgarishiga reklamaning ta'siri va uni tahlil qilish yo'nalishlari. Raqobat darajasi ko'rsatkichlari va ularni aniqlovchi omillar.

*5-Mavzu: Iqtisodiyot sub'ektlarining mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish hajmini tahlili

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishning mazmuni, vazifalari va manbalari. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. Mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'atini dinamik tahlili. Ishlab chiqarish maromiyligini tahlili. Yaroqsiz mahsulot natijasidagi yo'qotishlarni tahlili. Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi omillarni guruhlariga ajratish. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi mehnat omillari. Mahsulotlar tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar tahlili. Mahsulot hajmini oshirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash.

6-Mavzu: Mahsulot(ish, xizmatlar)ni sotish hajmi va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Iqtisodiyot sub'ektlarida mahsulot sotish hajmlarini tahlil etishning mazmuni, vazifalari va manbalari. Mahsulot sotish hajmi va uning dinamikasini tahlili. Sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillarining hisoblash. Mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishi tahlili. Sotilgan mahsulot sifatining tahlili. Mahsulotni sotish hajmini oshirish imkoniyatlarini aniqlash hamda korxonada amaliyotga tadbiiq etishni ko'rsatib berish.

7-Mavzu: Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik, mehnat unumdorligi va ularning mahsulot hajmiga ta'sirini tahlili

Iqtisodiyot sub'ektlarining mehnat resurslari bilan ta'minlanganligini tahlil

qilishning mohiyati va vazifalari. Tahlilni axborot manbalari. Iqtisodiyot sub'ektlarining mehnat resurslari tarkibi va ularning dinamikasini tahlili. Ish kuchi qo'nimsizligi va ishchilar malaka darajasini tahlili. Ish vaqtidan samarali foydalanish va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Mehnat unumdorligi dinamikasini tahlili. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar va ularni tahlili. Ishchilarning mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlili. Xodimlarning o'rtacha ish kuni davomiyligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Mahsulot hajmiga mehnat omillarining ta'sirini tahlili.

2-modul(7-semestr)

*8-Mavzu: Iqtisodiyot sub'ektlarining moddiy (material) resurslar bilan ta'minlanishini tahlili

Iqtisodiyot sub'ektlarining moddiy resurslar (mehnat predmetlari) bilan ta'minlanishini tahlil etishning ahamiyati va vazifalari. Tahlilning axborot manbalari. Moddiy resurslar bilan ta'minlanishlik va ulardan foydalanish samaradorligini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar tizimi. Korxonaning material resurslar bilan ta'minlanishini tahlili. Moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi va ularni ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini tahlili. Material qaytimi va material sig'imining tahlili.

9-Mavzu: Mahsulot ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili

Iqtisodiyot sub'ektlarining ishlab chiqarish xarajatlari tahlil etishning ahamiyati, vazifasi va axborot manbai. Korxonada xarajatlarni turkumlash: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari, "shartli-o'zgarmas" va "shartli-o'zgaruvchan" xarajatlari tahlili. Bir so'mlik mahsulot uchun qilingan ishlab chiqarish xarajatlari tahlili. Ishlab chiqarish xarajatlarning iqtisodiy elementlari va kalkulyatsiya moddolari bo'yicha tahlili. Mehnat haqi xarajatlari tahlili. Ishchilar va boshqa toifadagi xodimlarning ish haqi fondiga ta'sir etuvchi omillarni tahlili. Mehnat unumdorligi hamda o'rtacha ish haqi o'sishi o'rtasidagi nisbatni tahlili va ularni mahsulot tannaxriga ta'sirini hisoblash. Iqtisodiyot sub'ektlari faoliyatidagi davr xarajatlari tahlil qilishning nazariy-uslubiy asoslari. Sotish xarajatlarning davr Reklama xarajatlari va uning korxonada faoliyatidagi ahamiyati. Ma'muriy-boshqaruv xarajatlarning tahlili. Boshqa operatsion xarajatlarni tahlili. Davr xarajatlari pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash.

10-Mavzu: Balans ko'rsatkichlari va moliyaviy holatni tahlili

Iqtisodiyot sub'ektlarining moliyaviy holatini o'rganishning ahamiyati, mazmuni va vazifalari. Tahlilning axborot manbalari. Buxgalteriya balans va uni tahlilida qo'llanilishi. Balans aktiv moddalarining tahlili. Balans passiv moddalarining tahlili. O'z oborot mablag'lari bilan ta'minlanishlik va ularning o'zgarish sabablarini tahlili. Zahira va xarajatlarni qoplashga tegishli manbalar bilan ta'minlanishini tahlili. Korxonada to'lov qobiliyatini tahlili. Korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlili. Moliyaviy barqarorlikni yaxshilash chora-tadbirlari. Bank mijozining kreditga layoqatligini tahlili. Likvidlik ko'rsatkichlari. Balans likvidligini tahlili. Joriy va

istiqbolli likvidlik ko'effitsientlarini tahlili. Joriy aktivlar aylanishini tahlili. Mablag'lar aylanishining umumiy va alohida (xususiy) ko'rsatkichlari sistemasi. Korxonaning moliyaviy holati tahlilining natijalarini umumlashtirish va moliyaviy sog'lomlashtirish yo'llarini belgilash. Korxonada moliyaviy va iqtisodiy holatiga umumiy baho berish.

*11-Mavzu: Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot tahlili

Bozor munosabatlari sharoitida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tahlil qilishning ahamiyati, mazmuni va vazifalari. Tahlilning axborot manbalari. Korxonaning umumiy moliyaviy natijalari, ularning tarkibi va tuzilishini tahlili. Mahsulot sotishdan ko'rilgan yalpi moliyaviy natija va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijalarini tahlili. Moliyaviy faoliyatning daromadlari tahlili. Moliyaviy faoliyatning xarajatlari tahlili. Umumxo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini tahlili. Soliq to'langunga qadar foyda tahlili. Byudjetga to'lovlar va ajratmalar tahlili. Sof foyda va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Foydaning ishlatilishini tahlili. Rentabellik ko'rsatkichlarini tahlili. Rentabellikka ta'sir etuvchi omillar tahlili. Foyda va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

*12-Mavzu: Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tahlili

Iqtisodiyot sub'ektlarining debitorlik va kreditorlik qarzlarni tahlil qilishning ahamiyati, vazifalari va axborot manbalari. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning umumiy hajmini tahlili. Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini tuzish va uning tahlili. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning muddatlari bo'yicha tahlili. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligini tahlili. Qarzlarni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash va ularni amaliyotga tadbir etish.

*13-Mavzu: Iqtisodiyot sub'ektlarining asosiy vosita (fond)lar bilan ta'minlanishini va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot sub'ektlarining asosiy vositalar bilan ta'minlanishini o'rganishning ahamiyati, mazmuni va vazifalari. Tahlilning axborot manbalari. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasini tahlili. Aktiv asosiy vositalar tahlili. Passiv asosiy vositalar tahlili. Asosiy vositalarni texnik holati va harakat ko'rsatkichlarini tahlili. Asosiy vositalar bilan ta'minlanishlik va qurollanganlikni tahlili. Asosiy vositalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili. Fond qaytimi va fond sig'imining tahlili. Mashina va jihozlardan vaqt va quvvat bo'yicha foydalanishning tahlili. Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

*14-Mavzu: Pul oqimlarining tahlili

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyot sub'ektlarining pul mablag'lari bilan ta'minlanishlik va ularning oqimlarini o'rganishni ahamiyati, mazmuni va vazifalari. Tahlilning asosiy axborot manbalari. Korxonani umumiy pul mablag'lari oqimining tahlili. Xo'jalik faoliyatidagi pul mablag'lari harakatini tahlili. Moliyaviy faoliyatdan

pul oqimining tahlili. Investitsion faoliyatdagi pul oqimlari tahlili. To'langan soliqlar va ularning tahlili. Pul oqimlarini prognozlash. Valyuta mablag'lari harakatini tahlili. Pul mablag'lari harakatini tezlashtirish imkoniyatlarini aniqlash.

***15-Mavzu: Iqtisodiyot sub'ektlarining xususiy kapitali tahlili**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot sub'ektlarining xususiy kapitalini tahlil etishning mazmuni, vazifalari va manbalari. Xususiy kapitalni xarakterlovchi ko'rsatkichlar tasnifi. Xususiy kapitalning o'zgarish sabablarini tahlili. Ustav kapitalini tahlili. Qo'shilgan va rezerv kapitalini tahlili. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ni tahlili. Xususiy kapitalni ko'paytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash.

“Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanidan ma’ruza mashg’ulotlarning mavzular va soatlar bo’yicha taqsimlanishi: (6-semestr uchun)

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	Moliyaviy va boshqaruv tahlilining predmeti, asosiy vazifalari va tamoyillari	2
2	Moliyaviy va boshqaruv tahlilining metodi va usullari	2
6	Mahsulot(ish, xizmatlar)ni sotish hajmi va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	2
7	Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik, mehnat unumdorligi va ularning mahsulot hajmiga ta'sirini tahlili	2
	JAMI	8

(7-semestr uchun)

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
9	Mahsulot ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili	2
10	Balans ko'rsatkichlari va moliyaviy holatni tahlili	2
	JAMI	4

Izoh: Yuqorida yulduzcha (*) bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ushbu fandan talabalarga ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda berilgan nazariy va amaliy bilimlar, kunikmalarni yanada mustahkamlash maqsadida mashg'ulotlarda zamonaviy tajriba uskunalari, ko'rgazmali qurol va informasion texnologiyalardan foydalanish talabalar bilimini yanada mustahkamlaydi. Fandan amaliy mashg'ulotlarni quyidagi mavzular asosida tashkil etish tavsiy etiladi.

I-modul(6-semestr)

- Moliyaviy va boshqaruv tahlilining predmeti, asosiy vazifalari va tamoyillari*

- Moliyaviy va boshqaruv tahlilining metodi va usullari
- Iqtisodiyot sub'ektlarida tahlil ishlarini tashkil qilish va manbalar bilan ta'minlash*

- Iqtisodiyot sub'ektlarining marketing faoliyatini tahlili.
- Iqtisodiyot sub'ektlarining mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish hajmini tahlili.*
- Mahsulot(ish, xizmatlar)ni sotish hajmi va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.
- Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik, mehnat unumdorligi va ularning mahsulot hajmiga ta'sirini tahlili.

2-modul(7-semestr)

- Iqtisodiyot sub'ektlarining moddiy (material) resurslar bilan ta'minlanishini tahlili*
- Mahsulot ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili.
- Balans ko'rsatkichlari va moliyaviy holatni tahlili.
- Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot tahlili.*
- Debitorlik va kreditdorlik qarzlarning tahlili.
- Iqtisodiyot sub'ektlarining asosiy vosita (fond)lar bilan ta'minlanganligi va ularning foydalanish samaradorligining tahlili.
- Pul oqimlarining tahlili.*
- Iqtisodiyot sub'ektlarining xususiy kapitali tahlili.*

“Moliyaviy va boshqaruv tahlili” fanidan amaliy mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi (6-semestr uchun)

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
2	Moliyaviy va boshqaruv tahlilining metodi va usullari	2
2	Iqtisodiyot sub'ektlarining marketing faoliyatini tahlili.	2
4	Mahsulot(ish, xizmatlar)ni sotish hajmi va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.	2
7	Mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik, mehnat unumdorligi va ularning mahsulot hajmiga ta'sirini tahlili.	2
	JAMI	8

(7-semestr uchun)

№	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
1	Mahsulot ishlab chiqarish va davr xarajatlari tahlili.	2
2	Balans ko'rsatkichlari va moliyaviy holatni tahlili.	2
3	Debitorlik va kreditdorlik qarzlarning tahlili.	2
4	Iqtisodiyot sub'ektlarining asosiy vosita (fond)lar bilan ta'minlanganligi va ulardan foydalanish samaradorligining tahlili.	2
	JAMI	8

Izoh: Yuqorida yulduzcha (*) bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning

mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.

Amaliy mashg'ulotning mazmuniga quyiladigan talablar:

1. tavsiya etilayotgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga talabalarni tayyorgarligini ta'minlash;
2. muhokamaga munozarali savollar olib chiqish;
3. muhokama qiluvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomonidan ko'rib chiqish;
4. nazariya va amaliyotni uzviy birligi ochib berish;
5. muhokama qiluvchi materialning talabalarining bo'lg'usi kasbiy faoliyati bilan aloqasini ta'minlash;
6. tegishli mavzular bo'yicha masalalar ishlash;
7. ko'rib chiqilayotgan material adabiyotda mavjud emas yoki material, qisman bayon etilganligi.

Kurs ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar
Fan bo'yicha kurs ishlari o'quv rejada nazarda tutilmagan.

IV. Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar uchun mavzular:

1-modul(6-semestr)

1. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining predmeti haqidagi ilmiy nazariyalar.
2. Moliyaviy va boshqaruv tahlilining metodi va unda qo'llaniladigan usullar.
3. Iqtisodiy tahlilning oddiy-an'anaviy va iqtisodiy-matematik usullari hamda ularning tahlil jarayonida qo'llanilishi.

2-modul(7-semestr)

4. Iqtisodiy tahlil turlari va uning ishlab chiqarishni boshqarishdagi roli.
5. Iqtisodiy tahlilni tashkil etish va uning axborot manbalari.
6. Xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy koeffitsientlar tahlili.
Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. Nazorat topshiriqlari uchun tavsiya etiladigan mavzular va ularni bajarish uchun qo'yiladigan talablar

1-Modul. Auditning nazariy asoslari bo'yicha (6-semestr uchun).

- 1) Iqtisodiyot sub'ektlarida tahlil ishlarini tashkil qilish bosqichlari.
- 2) Iqtisodiyot sub'ektlari mahsuloti va xizmatiga bo'lgan talab darajasini aniqlovchi omillarning tahlili.
- 3) Mahsulot hajmini oshirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash.

2-Modul. Auditning xalqaro standartlari bo'yicha(7-semestr uchun).

1) Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ularidan foydalanish samaradorligini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar tizimi.

2) Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini tuzish va uning tahlili.

3) Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot sub'ektlarining xususiy kapitalini tahlil etishning mazmuni, vazifalari va manbalari.

Nazorat topshiriqlari talabalarga semestrning boshlanish haftasida professor o'qituvchilar tomonidan taqdim etiladi va talabalar berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda yuqoridagi keltirib o'tilgan ko'rsatmalar asosida kafedra tomonidan tuzilgan komissiya a'zolariga (tasdiqlangan grafik bo'yicha) yakuniy nazorat topshirish kuniga qadar amalga oshiriladi.

3.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)
Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

- Moliyaviy va boshqaruv tahlil fani bo'yicha barcha ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalarni, insert, klaster, muammoli izlanish usulini;

- Moliyaviy va boshqaruv tahlil fani ma'ruza hamda amaliy mashg'ulotlarida aqliy xujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini;

- Moliyaviy va boshqaruv tahlil fani bo'yicha o'tiladigan amaliy mashg'ulotlarda kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

«Buxgalteriya hisobi» bakalavr ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

-kursni o'rganish jarayonida talabalar har bir o'tilgan mavzu bo'yicha belgilangan hajmda reyting ballarini to'plashlari, kursning «tayanch» so'z va iboralarini chuqur o'zlashtirishlari, test savollari asosida o'z bilimlarini sanab borishlari lozim;

-o'qitish jarayonining joriy, oraliq va yakuniy baholash haftalarida yozma nazorat ishlarini bajarishlari, mustaqil ish sifatida referatlar tayyorlashlari, fanga oid chizmalar va jadvallar tayyorlab kelishlari lozim.

Shu bilan bir qatorda:

- boshqariladigan bozor iqtisodiyoti sharoitida Moliyaviy va boshqaruv tahlilining mohiyati, o'rni va ahamiyati; -Moliyaviy va boshqaruv tahlilining vazifalari va tamoiillarining amaldagi ahamiyati; Moliyaviy va boshqaruv tahlilining ilmiy-tadqiqot usullari va ularning umumiy iqtisodiy usullar bilan o'zaro bog'liqligi; Moliyaviy va boshqaruv tahlilining xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tashkil etish tamoiillari va ular samaradorligining g'ilmiy-nazariy jihatlari to'g'risida *tasavvurga ega bo'lishi; (bilim)*

- Moliyaviy va boshqaruv tahlilining ilmiy-nazariy jihatlarini; Moliyaviy va boshqaruv tahlilining turlarini;

Moliyaviy va boshqaruv tahlilining bajaradigan funksiyalarini; Moliyaviy va boshqaruv tahlilida qo'llaniladigan usullar; Moliyaviy va boshqaruv tahlilining xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini boshqarishdagi o'rni va ahamiyatini *bilishi va utardan foydalana olishi; (ko'nikma)*

- Moliyaviy va boshqaruv tahliliga oid mahalliy ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'rganish; Moliyaviy va boshqaruv tahliliga oid xorijiy ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'rganish; internet tarmog'i orqali Moliyaviy va boshqaruv tahliliga doir ma'lumotlarni, tahlil to'g'risidagi ilmiy-ommabop jumallardan foydalanish; Moliyaviy va boshqaruv tahlilining alohida mavzulari bo'yicha *ko'nikmalarga ega bo'lishi* kerak. (malaka)

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mintaqaviy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fandan talabalarni bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test nazoratini topshirish.

Diqqat! Topshiriqlar va nazorat ishlari dedlayn (qat'iy belgilangan vaqt) tarzida shakllantiriladi va talabalar tomonidan bajarish muddatida platformaga joylashtiriladi. Muddat yakunlanganidan so'ng javoblar qabul qilinmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi.

Talabalar bilimni baholash mezonlari

Audit fanidan talabalarni baholashda, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga qatnashishi va unda olgan baholarini inobatga olinadi.

1. Oraliq nazorati ma'ruza, amaliy mashg'ulotlardagi mavzularni qamrab oladi. Talabning nazorat topshiriqlarini topshirish jarayonida to'plagan bali oraliq nazorat bali hisoblanadi.

$$OB=N \cdot T(1,2,3) + A \cdot M + MT(3 \text{ tadan})/3$$

Bu yerda: OB- oraliq baholash; N.T- nazorat topshiriqlari;

A.M- amaliy mashg'ulotlar; MT- mustaqil ta'lim topshiriqlari.

Oraliq baholash bandlarining har biri kamida 60% holatda o'zlashtirilishi lozim. Agar nazorat ishini yoki biror bandning o'zlashtirilishi 60% dan kam bo'lsa, o'zlashtirilmagan hisoblanadi va yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

OB≥60%,

Yakuniy nazorat tarkibi: auditoriya mavzularidan (50%) va mustaqil ta'lim mavzularidan (50%) yakuniy nazorat savollari tuziladi.

Yakuniy nazoratda kamida 60% ni o'zlashtirilishi shart. Agar 60% dan kam bo'lsa yakuniy nazoratdan o'tmagan hisoblanadi. **YaN≥60%.**

Fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha topshiriqlar 2-5 baho oraliq'da baholanadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishdan o'rta 3,4,5 baho olgan talaba oraliq nazorat (ON)dan o'tgan hisoblanadi.

Yakuniy nazorat 2-5 baho oraliq'da baholanadi. Yakuniy nazorat turi bo'yicha 3,4,5 baho olgan talaba fanni o'zlashtirgan hisoblanadi. Aks holda qoniqsiz baho (2 baho) olgan talaba akademik qarzdor sifatida qayta topshirishga qoldiriladi.

Asosiy adabiyotlar

1. Shoalimov A.X. Tojiboeva Sh.A. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2010. -376 b.

2. Pardaev M.Q va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma. -T.: Cho'lpon, 2012. -400 b.

3. Vahobov A.V., Ibragimov A.T. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. -T.: Sharq, 2005. -478 b.

4. Pardaev M.Q., Shoalimov A.X. Boshqaruv tahlili. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005. -296 b.

5. Xakimov B., U.Xolmirzaev. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. - T.: Iqtisod-Moliya, 2013. -240 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston" 2017. 54 bet.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947 sonli farmoni.

3. Ergeshev E.E. Iqtisodiy va moliyaviy tahlil. Darslik. -T.: Konsaudinform,